

XUSHXABAR

BAHORAGA BERILGAN BAHO

Tengdoshingiz Bahora Abduvattorova Osiyoning
«Eng yaxshi yosh shaxmatchisi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

7-bet

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:24 (66981)

2014-yil

16-iyun



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092



HAR
KUNIMIZ
MAROQLI
O'TAR

4-bet

YOSHLARNI
BIRLASHTIRGAN
ANJUMAN



Ertangi kun yangicha fikrlaydigan,
zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan yuksak
malakali mutaxassislarni talab etadi.

2-bet



TALABALIK-BAXTI

– G'oliblikka erishish oson kechmadi. Nazarimda,
bunday katta bellashuv va kuchli raqobatda
muvaffaqiyat qozonish uchun yillar davomida puxta
bilim egallash zarur, – deydi informatika fani
bo'yicha eng yuqori ball to'plagan
Namangan davlat universiteti qoshidagi
2-akademik litsey o'quvchisi
Farziddin Nasriddinov.

TA'TIL FESTIVAL BILAN BOSHLANDI

Kuni kecha poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-umumta'lim maktabida «Biz sog'lom yurt farzandlarimiz!» shiori ostida festival bo'lib o'tdi.

«Sog'lom bola yili» munosabati bilan o'tkazilgan festivalning diqqatga sazovor jihati shundaki, uni shu yilning sentabr



oyida maktabning birinchi sinfga boradigan o'g'il-qizlar boshlab berishdi. Kichikintoylarning quvnoq she'r va qo'shiqlari, samimiyatga yo'g'rilgan harakatlari davraga o'zgacha zavq bag'ishladi.

Yana bir havas qilsa arzigulik tomoni, maktabning o'z shoirlari, doirachilar dastasi, gimnastikachilari, hattoki qo'g'irchoq teatri jamoasi ham bor ekan. Yosh qo'g'irchoqbozlar tomonidan namoyish etilgan «O'rmondagi uycha» spektakli blajonlar bilan birga kattalarga ham xush kayfiyat ulashdi.

Tadbir davomida milliy qadriyat-

larimizni ifodalovchi rang-barang sahna ko'rinishlari ham tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'ldi.

– Mazkur festivalning bolalar qalbidan chuqur o'rin olishi uchun fidoyi ustozlar bor mahoratlarini ishga solishdi. – deydi mamnuniyat bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Ziyoda opa Tosheva. – Yana bir e'tiborli tomoni, festivalni o'tkazishda Toshkent shahar pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti bilan hamkorligimiz bo'ldi. Institutning Qahramon Matxoliqov, Shamsiddin O'sanov va Anorxol Boymatova kabi tajribali pedagoglari bergan ko'maklari bayramimizning yuqori saviyada o'tishiga o'ziga xos zamin yaratdi.

Festival uzoq davom etdi. Unda ishtirok etgan o'quvchilar o'z iqtidorlarini har tomonlama namoyish etishga harakat qildilar. Ularning ko'zlari chaqnaq, Ona yurtini madh etuvchi she'rlari berilib o'qishlarini kuzatish nihoyatda zavqli edi. O'quvchilar festivaldan olam-olam zavq bilan qaytgan bo'lishlari shubhasiz. Zero, undan ko'zlangan maqsad ham shu edi, aslida.

Yusuf ABDULLAYEV.
M. AHMEDOV olgan surat

Yurtimizda ta'lim sohasida har kuni bir yangilik, xushxabarni eshitish mumkin. Kuni kecha ham poytaxtimizda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha respublika olimpiadasining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

TALABALIK BAXTI

Bellashuvda 15 ta umumta'lim fani bo'yicha 418 nafar bilimdon o'quvchi ishtirok etib, o'z intellektual salohiyatini namoyish etdi. Olimpiadaning birinchi bosqichida o'quvchilar amaliy ishlarni yozib topshirishgan bo'lsa, ikkinchi turdagi test sinovlarida 40 ta savolga javob berishdi.

Eng yuqori ballarni to'plab, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan 37 nafar o'g'il-qizga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 1-, 2-, 3-darajali diplomlari tantanali topshirildi. Keling, hayajon-u taassurotlarni g'oliblarning o'zlaridan eshitsak.

– G'oliblikka erishish oson kechmadi. Nazarimda, bunday katta bellashuv va kuchli raqobatda muvaffaqiyat qozonish uchun yillar davomida puxta bilim egallash zarur. Ustozlarim va ota-onamga minnatdorchilik bildirgan holda shuni aytishim mumkinki, ular menga har bir o'quv yilidagi dars, mavzularni vaqtda mukammal o'rganishni uqtirishgan. Bugungi xursandchiligimning yana bir sababi, biz o'zimiz xohlagan oliy o'quv yurtiga test sinovlarisiz qabul qilinar ekanmiz. Men o'qishni Toshkent axborot texnologiyalari universitetida davom ettirib, kelajakda o'zbek tilida dasturlar, milliy kompyuter o'yinlari va ilovalar yaratishni niyat qilaman, – deydi informatika fani bo'yicha eng yuqori ball to'plagan Namangan davlat universiteti qoshidagi 2-akademik litsey o'quvchisi Farziddin Nasriddinov.

Shunday qilib, saralarni saralagan mazkur olimpiadada yurtimizda iqtidorli yoshlar kundan kunga ortib borayotgani yana bir bor ma'lum bo'ldi. Sizda esa aka-opalaringiz va tengdoshlaringizga nisbatan dilingizda havas uyg'onib, katta marralarni egallash istagi tug'ilgan bo'lsa, demakki, mazkur bellashuvdan ko'zlangan barcha maqsadlar amalga oshdi, deyish mumkin.

O'z muxbirimiz



YOSHLARNI BIRLASHTIRGAN ANJUMAN

Mamlakatimizda yoshlarning bilimli, dunyoqarashi teran, har tomonlama salohiyatli bo'lib kamol topishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib, ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Yaqinda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan «Kamolot» yoshlar oromgohida «Yosh jurnalistlar media-treningi» o'tkazildi.



«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi hamda

tadqiqot natijalari yuzasidan taqdimot, mamlakatimizda turli sohalarda muvaffaqiyatlarga erishayotgan yoshlar bilan uchrashuv ham tashkil etildi.

Media-trening yakunida ishtirokchilar tomonidan mamlakatimizning yoshlarga oid milliy axborot siyosatining yagona konsepsiyasini shakllantirishga qaratilgan media-loyihalar bo'yicha aniq taklif va

O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi hamkorligida tashkil etilgan mazkur anjumanda Harakatning hududiy matbuot kotiblari bilan bir qatorda respublikamiz OAV yosh vakillari ishtirok etishdi.

Uning ishtirokchilari televideniye, radio, internet va matbuot yo'nalishlari bo'yicha guruhlar bo'lingan holda ish olib borib, sohaning ushbu yo'nalishlarida yoshlarga oid masalalarning yoritilishi borasidagi yutuqlar, muammo va kamchiliklar, tahririyatlarda yoshlar masalalari bo'yicha mavjud ilg'or tajribalar taqdimoti, nutq madaniyati, ijtimoiy mavzularni yoritishdagi mavjud muammolar kabi mavzularda o'zaro takliflar ishlab chiqishdi.

Tadbirda malakali mutaxassislar tomonidan yosh jurnalistlar uchun turli mavzularda o'quv va amaliy mashg'ulotlar, mahorat darslari o'tkazildi.

Anjumana doirasida «Ommaviy axborot vositalari va yoshlar» mavzusidagi ijtimoiy



Ustozlar hikmati yoshlarga ibrat

tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadbirning barcha ishtirokchilari «Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

Uch kun davom etgan tadbir OAVda faoliyat yuritayotgan malakali mutaxassislar hamda yosh

jurnalistlarni yanada jipslashtirgani bilan ahamiyatlidir.

YANGI LOYIHALAR MUHOKAMADA

– Media-trening yakuniga yetgan bo'lsa-da, juda hayajondaman, – deydi «Sport» teleradiokanali muxbiri Nafosat Tojiboyeva. – Avvallari ham ko'plab tadbir va konferensiyalarda qatnashganman. Lekin bu galgi tadbirdan juda ko'p narsalarni o'rgandim, ustozlar, tengdoshlarim bilan o'zaro fikr almashdim. Ahamiyatlisi, ushbu anjumanda ishtirok etgan barcha jurnalistlar ko'plab g'oyalar, tashabbuslar bilan chiqishdi. Tadbir jarayonida har bir guruh tomonidan yigirmadan ortiq loyihalar ishlab chiqilgani diqqatga sazovor.

BILIMLAR O'ZLASHTIRILDI

– Ushbu media-trening menda katta taassurot qoldirdi, – deydi tadbirning yana bir ishtirokchisi, «Jizzax haqiqati» gazetasi muxbiri Jamshid Yarobekov. – Trening davomida kechgan debatlar, o'zaro mulohotlar orqali ko'p bilimlarni o'zlashtirdik. Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan hamkasblarimiz bilan bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor, g'amxo'rliklar hamda ularni tashvishga solayotgan ba'zi muammolar xususida qizg'in muzokaralar olib bordik. Anjuman ishtirokchilari olgan barcha bilim va ko'nikmalar efigra uzatiladigan ko'rsatuvlarda, radioeshittirishlarda, matbuot hamda internet sahifalarida o'z aksini topadi, degan umiddaman.

Jamshid KAMOL

DO'STLARIM KO'PAYDI



Respublikamizdagi barcha akademik litsey va kasbhunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida «Sog'lom bola yili» Davlat dasturini men qanday tushundim?» mavzusida insholar tanlovi bo'lib o'tdi. Men ushbu tanlovning shahar bosqichida birinchi, respublika bosqichida ikkinchi o'rinni egalladim va II darajali diplom bilan taqdirlandim. Tanlov tufayli viloyatlik tengdoshlarim bilan yaqindan tanishdim.

Bu quvonchli xabarni sevimli gazetam «Tong yulduzi»ga yozishga ahd qildim. Aziz tengdoshlarim, siz bu o'quv yilida qanday yutuqlarga erishdingiz, yozgi ta'tilni qanday o'tkazaysiz? Bu haqda sevimli gazetamiz orqali o'rtoqlashish yodingizdan chiqmasin.

Go'zal OTAXONOVA,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi akademik litsey o'quvchisi

Obod manzillar

Yurtimizning chekka qishloqlarida namunaviy loyihalar asosida turar-joy mavzularini qurish borasida Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi «Arabmozor» qishloq fuqarolar yig'inida amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga molik.

Yaqinda «Teraktagi» mahallasida barpo etilgan 30 ta uy-joy o'z egalariiga topshirildi.

– Bu yerda biz uchun barcha qulayliklar yaratilgan ekan, ayniqsa, bolalar uchun alohida xona, o'yin maydonchasi borligidan juda quvondik, – deydi 10-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Mo'tabar Aziz-xo'jayeva. – Hovlimizga turli manzarali va mevali daraxt ko'chatlari o'tqazdik, har xil gullar ekdik. Yangi mahallamizni yanada fayzli, ko'rkam va obod maskanga aylantiramiz, – deydi u faxrlanib.



Muhammadjon MAHMUDOVI,
Farg'ona viloyati

ORZULARI BIR DUNYO

Ziyobek endigina yetti yoshga to'ldi. Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi 9-umumta'lim maktabining 1-sinfini a'lo baholarga tamomladi. Ota-onasi farzandining ilmga chanqoqligi, kitobga mehri bo'lakcha ekanligini o'z vaqtida angladi.



Ziyobek bog'cha yoshidayoq xaritada ishlashni o'rganib oldi.

Ayniqsa, onasi Yulduzxon Jabborova tarix fani o'qituvchisi bo'lgani bois, Ziyobek bog'cha yoshidanoq xaritada ishlashni o'rgandi. Hozirda dunyo mamlakatlarning chegarasi, okeanlar-u orollarning xaritada joylashgan o'rini bemalol ko'rsata oladi. Otasi Jo'rabek Tursunovdan erta bahorda noyob mevali daraxtlarni payvand qilishni o'rgandi, birgalikda qushlar uchun inlar yasashdi. Yozgi ta'tilni maktabdagi kunduzgi oromgohda o'tkazayotgan o'quvchining mavsum davomida bajarishi lozim bo'lgan rejalari talaygina. Endilikda tinib-tinchimas bola yangi o'quv yili boshlangunga qadar shaxsiy kutubxonasini yangi nashrdan chiqqan adabiyotlar bilan to'ldirish niyatida.

Orzulari bir olam Ziyobek Egamberdiyev kelajakda mohir futbolchi bo'lib, jahon sport maydonlarida yurt sharafini himoya qilish niyatida.

Yosh bo'lishiga qaramay, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan Ziyobek misolida yurt farzandi kamolini ko'rdik.

Nurbek QIDIRALIYEV

KICHIK TADBIRKOR — OILAGA MADADKOR

Bugungi kunda yurtimizda tadbirkorlik faoliyati, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni yanada kengaytirishga qaratilayotgan e'tibor quvonarli.

Hozirda bo'sh vaqtini unumli o'tkazib, o'z tomorasida ota-onasiga yaqindan yordam berayotgan yoshlar talaygina.

Bugun sizlarga oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelayotgan ikki oila haqida hikoya qilmoqchimiz. Ular poytaxtimizning Hasanboy dahasida istiqomat qilishadi. Ikki o'rtoq Abdulaziz Obidjonov va Shuhrat O'tkurov Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabining o'quvchisi.

Alisher aka Usmonov va Dilnoza opa oilasida olti nafar farzand



voyaga yetmoqda. Biz oilaning to'rtinchi farzandi Abdulazizni suhbatga chorladik:

– Hovlimizdagi issiqxonada turli-tuman gullar yetishtiramiz. Doimo tomorqa ishida ota-onamga ko'maklashib yurganim uchun botanika, biologiya fanlariga juda qiziqaman. Gullarga suv quyish, ularni ko'paytirish kabi yumushlarni zavq bilan bajaraman. Chaman bo'lib ochilgan turfa gullar meni o'ziga maftun etadi.

Ayniqsa, bayramlarda ustozlarimga, do'stlarimga o'zim parvarishlagan gullarni taqdim etish juda yoqli.

Yana chet tillarini o'rganishga ham qiziqaman. Maktabimizda tashkil etilgan ingliz tili to'garagi mashg'ulotlariga muntazam qatnashaman.

– Kelgusida qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz?

– Kelajakda oliy o'quv

yurtida o'qib, ziroatchi (agronom) bo'lish niyatim bor. Shuning uchun hozirdanoq maktabimiz kutubxonasidagi yer, tuproq va o'simliklar dunyosiga oid kitoblarni o'qib boryapman.

Abdulazizning sinfdosh o'rtog'i Shuhrat esa Shukurxo'ja aka Kamolxo'jayev va Saida opaning to'rtinchi farzandi bo'lib, u ham bo'sh vaqtini zoye ketkazmay, oila hisobiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. U hovlisidagi tomorqaga ekilgan poliz mahsulotlarini yetishtirishda ota-onasiga yaqindan yordam beradi.

– O'tgan yilning kuz oylarida tomorqamizga rediska urug'ini sepgan edik, – deya so'z boshladi Shuhrat. – Qish bo'yi xalqimiz dasturxoniga mazali rediskalar yetkazib berishga o'z hissamizni qo'shdik. Hozir bodring ekish taraddudimiz, undan mo'l hosil olish rejamiz bor.



– Dehqonchilik kishidan kuchli mehnat va chiniqishni talab etadi. Bunda, ayniqsa, jismoniy tarbiya juda muhimdir. Sportga ham qiziqsangiz kerak-a?

– Albatta, sportning tennis turiga juda qiziqaman. Maktabimizda tashkil etilgan tennis to'garagining faol a'zosi.

«Mehnat qilib topganing, qand-u asal totganing» iborasining naqadar to'g'ri ekaniga ushbu oilalar misolida yana bir karra ishonch hosil qildik.

Dilorom HOTAMOVI,
ZUHRA olgan suratlar

YAKKABOG'DAN MEHMON KELDI

Tahririyatimizga o'quvchilar yurtimizning olis go'shalaridan buvasi yoki buvisi, ota-onasi hamrohligida kirib kelishlari tabiiy holga aylangan.

Kuni kecha Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 50-umumta'lim maktabining 2-«A» sinf o'quvchisi

kabi shoirlarimiz ijod namunalaridan o'qib berib, barchamizni bolalikning sehrli olamiga bir lahzaga bo'lsa-da yetaklagandek bo'ldi.

Xurshida she'rlarini dastlab onasi Gulbahor opaga, so'ngra ustoz Zarifa opaga ko'rsatib, ularning maslahatini olarkan. U bilan suhbat chog'i Turdiali degan shirintoy ukasi borligini, maktabda esa Barchinoy degan sinfdoshi eng yaqin dugonasi ekanligini bilib oldik. Poytaxtimizdagi favvoralar, teleminora, hayvonot bog'i va boshqa istirohat bog'lari unga juda ma'qul bo'libdi. A'lochi qiz

Yakkabog'ga borganida, bu yerda ko'rganlarini o'rtoqlariga ham gapirib berarkan. Keyingi o'quv yilini ham faqat a'lo baholar bilan bezashni diliga tugib qo'yibdi. Bolalarcha beg'ubor va samimiy orzuga ne yetsin?!

Yusuf OG'AY



Xurshida Boymirzayeva gazetamiz mehmoni bo'ldi. O'quv yilini a'lo baholarga yakunlagan Xurshida Vatan, do'stlik, ona tabiatga bag'ishlangan bir dasta she'rlarini ham olib kelibdi. O'zining ijodidan hamda Zafar. Diyor, Po'lat Mo'min, Qambar Ota, Tursunboy Adashboev, Anvar Obidjon

KITOBIM

Kitobjonim, kitobim, Ilmga kon bulog'im. O'qiyman qo'ldan qo'yimay, O'zingsan chin o'rtog'im.

Aqlim charxlanib borar, Nutqim o'sar kun sayin. Yo'limni yorituvchi, - Seni oftob atayin.

Xurshida
BOYMIRZAYEVA

Aziz o'quvchilar! Yozgi ta'tilni maroqli o'tkazaysizmi? Bo'lmasam-chi, axir maktabimizda sog'lomlashtirish maydonchasi-yu kunduzgi oromgohlar tashkil etilgan, deysizmi?!

HAR KUNIMIZ O'TAR MAROQLI

Poytaxtimizning Shayxon-tohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabida «Qaldirg'och» sog'lomlashtirish maydonchasi ham allaqachon kunduzgi oromgohning birinchi mavsumini boshlab yubordi. Maskanda o'quvchilar har tong odatdagiday badantarbiya mashqlarini bajarib, so'ng mashg'ulotlarga jalb qilinadilar.

2-«A» sinf o'quvchisi Ibrohim Tolipovga, ayniqsa, ingliz tili darsi juda yoqar ekan:

— Ingliz tili mashg'ulotlarining o'yin tarzida olib borilishi bu tilda turli meva,

ko'rsak, ertasiga tabiatga sayohatga chiqamiz. Ta'til kunlarim ana shunday maroqli o'tayotganidan ota-onam ham xursand.

Mazkur dargohda o'nga yaqin fan va sport to'garaklari faoliyat yuritib, bu o'quvchilarning yil davomida olgan bilimlarini yanada mustahkamlab yangi o'quv yiliga puxta hozirlik

ko'rishlariga zamin yaratadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Faxriya opa Shirovaning aytishicha, bolalarga, ayniqsa, quvnoq startlar, turli estafeta musobaqalarining

tashkillashtirilishi manzur bo'lmoqda. Shuningdek, yangi badiiy kitoblarga boy maktab kutubxonasi ham o'quvchilar ixtiyorida.

Mana, dam oluvchi bolalarning yana bir kuni mazmunli yakunlanib, uylari tomon yo'l oldilar. Bugun ulardan biri chizgan rasmini ota-onasiga ko'rsatsa, yana biri rang, jonivorlarning nomi-yu sonlarni yaxshi o'rganish imkonini beradi.



Bundan tashqari, sport to'garaklarida shaxmat-shashkaga qatnashmoqdaman. Bir kun qo'g'irchoq teatrida tomosha

sport to'garagida o'rgangan mashqlari haqida so'zlab bersa, ajabmas.

Sayyora QODIROVA.
Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA

O'N BARMOG'IM - O'N HUNAR

Kushxabarning qanoti qizaloqning qo'llaridan tutadi. Qizaloq «oyoqlarini qo'lga olib» yuguradi: — «Oyi, oyijon, uzo-oqdan laylakni ko'rdim. Shunaqangi oppoq, chiroyli... Yuring, yura qoling, sizga ham ko'rsataman».

— E-e, qizalog'im-ey, u laylaklarning in qurib, bolalarini uchirma qilganini ko'rib, ulg'ayganman, — deydi ona qizchanning jamalak sochlarini silab. Qishloqqa tutash dalalardagi qator simyog'ochlarni to'ldirgan laylak inlari tagida turib qo'shiq aytganimiz hali-hanuz esimda.

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi...

— Laylakning qanoti qog'ozga aylandimi-a? — hayratli ko'zlar mo'jizaga duch kelgandek quvnab ketadi. — Unga xat yozsa bo'ladimi? Bu laylaklar qishloqqa — buvimning ko'chasiga ham boradimi?

Qizaloqning savollari tugamas edi...

Bolajonlar ta'tilni orziqib kutishardi. Biz esa buvimning ertaklarini sog'inardik. Maktab tugashi bilan qishloqqa otlanamiz. U yerda o'tadigan kunlarni, odamlarni ham yaxshi ko'rib ketamiz. Ular boshqachada, baribir. Kunlar ham uzun — buvimning nasihatlaridek... Eshitganimiz sayin eshitgimiz kelardi.

Ayniqsa, ertak aytishdan oldin: — Endi katta bo'lib qoldingiz, — deb gap boshlaydi, — yaxshi o'qishingizdan xursandman. Ammo... olim bo'lsang ham hunarli bo'l, hunar — zar, deyishadi. Aslida,

zardan a'lo. Yigit kishiga qirq hunar oz bo'lsa, qiz bolaning o'n barmog'i o'n hunarga aylanishi kerak.

O'ringdan turdingmi, o'zingga qara, qo'g'irchoqdek bo'lib ol, soch turmaklashda epli bo'lsang, ishing o'ngidan keladi. Ishingni ko'cha-eshikka suv sepihdan boshla — bu xalqimizning ming yildayam o'zgaraydigan odati. «Yerning yuzini ochsang, diling ochiladi», deb bejiz aytishmagan. Pazanda bo'l, ro'z'orga qut-baraka kiradi. Qo'lga igna tutganing har choki pishiq bo'lar, matosi to'zisa-da, choki ketmas.

Kashtaning har qatimiga mehningni qo'shib tiksang, ipaklari nurlanar. Savat to'qishni maromiga yetkazsang, har

xonadon non yopganda, falonchining qo'li gul, deb nomingni e'zozlar. Mo'yqalam tutishga mohir bo'lsang, mo'jiza deganingni qog'ozga muhrla. Muhrlaganda ham unga jon kirit. Mashqoy bo'lsa, dutor chert, soz chal, ovozing bo'lsa, xirgoyi qil... Zap yoshlarning zamoni bo'ldi. Dunyoning to'rt tomoni bir kunlik yo'l.

Harakati bo'lsa hosilini teradi. Yoshlikning bir damini bekor o'tkazma, yelga sovurma.

Kasb-u hunarni ilm-u odob, tarbiya, muomala aziz qiladi. Har ishdagi me'yor olmos qonun, bolam...

Ertakdan ko'ra buvimning ertakdek hikoyalari adoqsiz... Har takrorlaganda nimanidir topgandek bo'laveramiz. So'ridagi suhbatlarimiz nihoyalamaydi. Yonboshimizga yostiq qo'yiladi...

Yulduzlar esa yana ham yorishib ketgandek...

Xayolim bo'linadi — mening ham ertagim bo'lishini, hammaning shunday buvijoni bo'lishini juda-juda istardim.

Dilfuza SHOMALIKOVA



NIGOHIDA QUYOSH AKSI BOR



Otabek Abdurahmonov ham bor.

Yaqinda bo'lib o'tgan Respublika «Tasviriy san'at» festivalida Otabek ham ishtirok etdi va sertifikat bilan taqdirlandi. Izlanuvchan tengdoshingizning ijodiy ishlariga nazar tashlar ekanmiz, uning deyarli har bir chizgan rasmlarida quyosh aksini kuzatish mumkin.

Chunki u ona tabiatimizni, muqaddas zaminimizni, musaffo osmonimizni yaxshi ko'radi. Ulardan ilhomlanadi. Ayniqsa, quyosh unga o'zgacha ilhom beradi.

Ha, quyosh bizga, ona yerimizga issiqlik nurini sochadi. Otabek ham bir kun kelib, o'zining betakror rasmlari bilan atrofdaqilar qalbiga ezgulik nurlarini ulashadi, degan umiddamiz.

Orzu daraxti



Ayni ta'til kunlarida poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 21-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilar bilan yanada gavjum. Ayniqsa, go'zallik xazinasi deya ta'rif berilgan tasviriy san'atga bolaligidanoq mehr qo'ygan o'quvchilar talaygina.

Ular orasida Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi 106-zaif eshituvchi bolalarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 6-«V» sinf o'quvchisi



Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Kasb va hunarga oid so'zlar

In the family circle (Oila davrasida)



This is a woman
She is a doctor



This is a man
He is a worker



This is a girl
She is a pupil



This is an old woman
She is a retired



This is a woman
She is an engineer



This is a man
He is a driver



This is a boy
He is a student



This is a woman
She is a teacher

Exercise 2. Finish sentences using these words:

- children, parents, daughter, son.
- This man is my father. This woman is my mother. They are my ...
 - This is a girl. Her name is Nigora. She is my ...
 - This is a boy. His name is Salim. He is my ...
 - This is Olim. This is Munira. They are small. They are ...

Exercise 3. Put the words in the correct column (Jadvalni to'g'ri to'ldiring).



Women	Man	Both

- Actor, chief, nephew
Niece, aunt, child
Madam, musician, bridegroom
Uncle, model, athlete
Sir, nurse, professor
Pilot, cousin, bride

- Knife.
- Tea bowl.
- Tea-pot.
- Spoon.
- Napkin.
- Soup bowl.
- Table-cloth.
- Bread.



Using these words full fill the text:
napkin, some bread, spoons, tea bowls.

Every day we have dinner with all our family. I help my mother all the time and lay the table, bring ... and ... little sister likes putting ... and ... in place. After then when my grandfather and grandmother, father come my mother brings delicious meal and we have dinner together.

O'zDJTU talabasi
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Risolat ISMOILOVA

NAFOSAT BOG'INING GULG'UNCHALARI

Navoiy viloyatidagi Qiziltepa tumani O'zbekistonning eng qadim va obod maskanlaridan. Undagi Bo'ston qal'asini arxeolog olimlar So'g'diyonaning birinchi shaharlaridan ekanini ta'kidlab, yoshi 2800 yilga teng, deyishadi. Arabon qishloq fugarolar yig'ini hududidagi Demas qal'asida eramizning dastlabki qillarida katta bozor bo'lib, unga uzoq-uzoqlardan savdogarlar tashrif buyurishgan.

Buxoro so'g'dining asosiy qismini o'rab olgan Kanpirak devorining katta qismi tuman cho'l-dasht va madaniy hududidan o'tgan bo'lib, bu topilma qoldiqlari Qiziltepa hududida saqlanib qolgan. Mazkur devor himoya tizimiga kirgan Bo'ritepa, Abu Muslim,

Shahrivayron, Qiziltepa, Oqsochtepa, Lavandoqtepa, Quyimozortepa hamda Tavois, Vang'oz, Toshrobot, Zarmitan-u Arabondagi qadimiy osori atiqalar, ulug' avliyolar makonlari bu go'sha tarixining naqadar qadimiyligidan guvohlik beradi. Haqiqatda, tadqiqotchi olimlar

guvohlik berishicha, Qiziltepa tarixi nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyo ahamiyatiga ega.

Qiziltepa azaldan ulug' allomalar, ijodkorlar yurti bo'lib, bu zaminda Xoja Ajvandi Nabi Mashvarat, Xoja Hasan Andoqiy, Xoja Sa'd Vaqqos, Xoja Muhammad Vose' kabi ulug' avliyolar yashab o'tishgan.

Qiziltepa, ayniqsa, mustaqillik yillarida beqiyos darajada chiroy ochdi.

Bugun Qiziltepa yoshlari Istiqlol sharofati bilan ijodda yanada yuksak marralarga erishmoqda. Muhabbat Temirova, Xurshida Narziyeva va

Nazokat Muhammedova Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lishdi.

«Qiziltepa tongi» tahririyati har yili o'nga yaqin yo'nalishda tanlovlar e'lon qilib, tumandagi iqtidorli yoshlarni elga tanitmoqda.

Ayni vaqtda tahririyat atrofida birlashgan uch yuzdan ortiq ijodkorning aksariyati yoshlardir. Ularning ijodidan sizlarni ham bahramand aylashni niyat qildik.

Rahim MAQSUDOVA,
«Qiziltepa tongi» gazetasi
Bosh muharriri



BAXTIM BOR

Qiziltepa shahrim bor,
Ko'chalari lolazor.
Unda mening baxtim bor,
Baxtim bor-ey, baxtim bor.

Ko'ktog' osha har kuni,
Quyosh nurin sochadi.
Oymoma-chi har tuni,
Menga «qoshin» qoqadi.

Bobolari purhikmat,
Momolari seriffat.
Ahillikda tengi yo'q,
Jo'sh urar shundan g'ayrat.

Binolari osmono'par,
Har inson o'z qadrin topar.
Jonajonim shahrim bor,
Unda mening baxtim bor.

Ulfatbegim RAHIMOVA,
5-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

KITOB

Sirli bir o'rtog'im bor,
U-chi bilimlarga kon.
Bizga saboq beradi,
Bilim – baxt keltiradi.

Mening do'stimdir kitob,
Aql-u idrokda o'tob.
Uni avaylash lozim,
Bu sizga aytar so'zim.

Iqboloy QORAYEVA,
12-umumta'lim maktabining
5-«A» sinf o'quvchisi



SOG'LOM BOLA BO'LAMIZ

«Sog'lom bola yili»da,
O'qib, quvna b o'samiz.
Shaxdam qadamlar tashlab,
Sog'lom bo'lib yuramiz.

Yurakdagi ahdimiz,
Faqat olg'a boramiz.
Sportga mehr qo'yib,
Sog'lom bola bo'lamiz.

Dildora TOLIBOVA,
13-umumta'lim
maktabining
2-«A» sinf
o'quvchisi



EL DARDIDA YASHAR SHOIR

She'r yozish-chun ilhom kerak,
Olloh bergan in'om kerak,
Ma'noli so'z, kalom kerak,
El dardi-la yashar shoir.

Mashhur bo'lay, debon emas,
Go'zal yurtga etib havas,
Elini kuylab har nafas,
El dardi-la yashar shoir.

Og'abek RAJABOV,
15-umumta'lim maktabining
5-«B» sinf o'quvchisi

O'ZBEKISTON YOSHLARI

«Yoshlar baxtli bo'lsin», deydi Yurtboshi,
Mudom tinchlik istar keksa-yu yoshi,
Porlasin osmonda yurtim quyoshi,
Shuni istar O'zbekiston yoshlari.

Nurli manzillarga olg'a boramiz,
Qunt va sabot bilan bilim olamiz,
Buyuk bobolarga izdosh bo'lamiz,
Deydi mag'rur O'zbekiston yoshlari.

Doimo ilg'ormiz ta'lim, sportda,
Hech kimdan kam bo'lmay, deymiz hayotda,
Baxtiyor yashaymiz bizlar, albatta,
Yurtga posbon O'zbekiston yoshlari.

Gulbahor SHOMURODOVA,
26-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi



NIYAT

Harbiydir mening tog'am,
«Sog'lom o'sgin, bolam, – der.
Vatanini asraydi,
Jasur farzand misli sher.

Mardlar turar maydonda,
Chekinmaydi hech qachon.
Bu o'g'lonlar hamisha
Vatanga bo'lgay posbon».

Men ham o'sib-ulg'ayib,
Zo'r pahlavon bo'laman.
Vatanimga, xalqimga,
Sodiq o'g'lon bo'laman.

Ahmadjon USMONOV,
12-umumta'lim maktabining
4-«B» sinf o'quvchisi

MURABBIYNING QUVONCHI

Tengdoshlarimning sport sohasida erishgan yutuqlaridan xursand bo'lasan. Bunda fidoyi ustozlarimizning hissalarini katta ekanini yaxshi bilaman. Bugun ana shunday tashabbuskor murabbiylardan biri Akbar aka JO'RAYEV haqida hikoya qilmoqchiman.


Tumanimizda bu insonni tanimaydigan bolaning o'zi yo'q. Chunki Akbar aka Yangiyer shaharchasidagi «Alp» klubini tashkil etib, Qumqo'rg'on tumanidagi 4- va 37-umumta'lim maktablari qoshidagi taekvando to'garigiga ham rahbarlik qilib kelmoqda. Taekvandoning WTF yo'nalishi bo'yicha ustozdan saboq

olayotgan ikki mingga yaqin o'quvchilar bugun ko'plab musobaqalarning g'olibiga aylanishgan. O'tgan yili O'zbekiston ochiq chempionatida Ozoda Mengliboyeva, Nilufar Norboyeva, Iroda Qudratova kumush va bronza medallarini qo'lga kiritishdi. Shu yili bo'lib o'tgan «Alpomish kubogi»da esa Ramazon Norqobilov, O'ktam

Allayorov, Maftuna Ergasheva, Muqaddam Rahmatova sovrindorlar safidan joy olishdi.

Bugun mamlakatimizda bolalar sportiga berilayotgan katta e'tibor meni quvontiradi. O'tgan yili shogirdim Ramazon Norqobilov Malayziyada o'tkazilgan musobaqada bronza medalini qo'lga kiritgani,

taekvandoning WTF yo'nalishi «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» musobaqalariga kiritilgani meni yanada ruhlantirdi, — deydi ustoz quvonch bilan.



Barno DONAYEVA, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on yengil sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi

JAJJI G'OLIBA

Madinabonu Nurmatova poytaxtimizdagi 260-umumta'lim maktabining 2-«J» sinf o'quvchisi. Mana, to'rt yildirki, u sportning badiiy gimnastika turi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.

Madinabonu «Ninachi» sport klubida taniqli murabbiy Valentina Tilipovadan murakkab mashqlarni qunt bilan o'rganib, turli musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. O'tgan yili yosh sportchi «Porlovchi yulduzchalar» musobaqasi hamda shu yili 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida o'tkazilgan turnirda ham 2-o'ringa sazovor bo'ldi.

Sportni eng yaxshi do'st, deb bilgan Madinabonu bo'sh vaqtlarida rasm chizish, she'r yodlashni yaxshi ko'radi. U yozgi ta'tilda ham sevimli sport turi bilan shug'ullanishni maqsad qilgan.

Orzulari ko'p singlimga havas qilib, ta'tilda men ham sport bilan do'stlashishga qaror qildim.

Barno MAMAJONOVA, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 59-DIUMning 6-«B» sinf o'quvchisi



Yaqinda Birlashgan Arab Amirliklarining Al-Ayn shahrida Osiyo shaxmat federatsiyasi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Tadbir doirasida 2013-yilgi marsum yakunlariga ko'ra, turli nominatsiyalar bo'yicha Osiyoning eng yaxshi shaxmatchilari nomi e'lon qilindi. E'tiborlisi, hamyurtimiz — Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 152-maktabning 9-sinf bitiruvchisi Bahora Abdusattorova Osiyo qit'asining «Eng yaxshi yosh shaxmatchisi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.

BAHORAGA BERILGAN BAHO

Dunyoning 120 mamlakatidan eng iqtidorli shaxmatchilar ishtirok etgan nufuzli musobaqaning o'n to'rt yoshgacha bo'lgan qizlar bahsida Bahora latviyalik Darya Litvyakova, isroillik Michal Lahav, irlandiyalik Diana Mirza, kanadalik Kiyu Jou, ozarbayjonlik Narmin Mammadova, rossiyalik Anna Vasenina hamda jamoadoshlari Nilufar Yoqubboyeva va Gulruhbegim Tohirjonova ustidan g'alaba

qozonib, xitoylik Lan Yao va ozarbayjonlik Gunay Mammadzoda bilan durang o'ynadi.

O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasidan ma'lum qilinishicha, Osiyo shaxmat federatsiyasi yig'ilishida Bahora Abdusattorovanning jahon chempionati bahslarida namoyish etgan ajoyib o'yinlariga yuqori baho berildi va u nufuzli mukofotga loyiq topildi. G'oliblarga sovrinlar 25-iyun kuni Al-Ayn shahrida topshiriladi.

TUHFA

Samarqand shahridagi «Lokomotiv» jismoniy tarbiya va sport klubi qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.

Majmuada asosiy musobaqalar o'tkaziladigan to'rtta qumli hamda mashg'ulotlar uchun uchta asfalt qoplamali kortlar, yugurish yo'laklari, kiyinish va yuvinish xonalari bugungi kun talablari darajasiga keltirildi.

Zamonaviy qiyofa kasb etgan majmua ochilishi munosabati bilan Samarqand viloyati tennis federatsiyasi sovrini uchun 14 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida musobaqa o'tkazildi. Tadbir doirasida 64 nafar yosh tennischi hamda Samarqand shahridagi 9-, 11-Mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilariga sport liboslari taqdim etildi.



Shoh MUHAMMAD

JONIVORLAR OLAMI

JIRAFANING BO'YI UZUNMI, BO'YNI?

Aziz bolajonlar, dunyodagi eng bo'yi baland jonivorni bilasiz-a? Ha, bu jirafa hisoblanadi.



Ma'lumotlarga qaraganda, jirafa Afrika mintaqasining janubidagi hududlarning savannalari va juda siyraklashgan o'rmonlarida hayot kechiradi. Ular asosan, 10-12 ta jonivordan iborat oila bo'lib yashashadi.

Ushbu jonivor tanasining balandligi 5,5 metrgacha, og'irligi esa, tonnaga yetadi. Jirafaning tanasi kalta, bo'yni esa uzun, oldingi oyoqlari ham orqa

oyoqlariga nisbatan ancha uzun bo'ladi. Uning boshida yungli teri bilan qoplangan 1-2 juft kalta suyak shoxlari bor. Tanasining rangi har xil, odatda och sarg'ish tusli bo'lib, tanasida yirik qora xollari bo'ladi. Bu jonivor daraxtlar, asosan, akatsiya barglari va novdalari bilan oziqlanadi.

Eng qizig'i, uxlashni uncha xush ko'rmaydigan bu jonivor sutkasiga atigi 2 soatgacha uxlar ekan. Yana bir hayratlanarli jihati, jirafa bir ichishda 38 litrgacha suv ichadi.

Ona jirafa ikki yilda bir marotaba bolalaydi. Dunyoga kelgan jirafachalar tanasining uzunligi dastlab 1,8 metr, og'irligi 50 kilogrammgacha bo'ladi. Jirafa bolasi tug'ilishi bilan oyog'ida tik turib, bir necha soatdan keyin hatto yugurib ketadi.

Jirafalar 25-35 yil umr ko'radi.

ZUBAYDA

XANDA



- Maktabni besh bahoga tugatibsan, tabriklayman, - dedi ota mamnun holda o'g'luga qarab.
- Nega unday deysiz, hammasi besh bo'lgani yo'q.
- Nega kamtarlik qilasan, o'g'lim, mana, kundalik daftaringni ko'rib, xursand bo'lib o'tiribman. Unda bir dona ham to'rt bahoni ko'rmaypamku.

- Eh, dadajon-ey, axir bu kundalik sindfosh do'stimniki-ku...
- Yo'g'-e, - boshini ushlab qoldi «beshchi»ning dadasi.

MANZURA

«GULDASTA» — TOPISHMOQ

Shaklning chap tomoniga «gul» so'zi bilan tugallangan, o'ng tomoniga «Gul» so'zi bilan boshlanadigan o'simliklar nomlarini yozish orqali boshqotirmani hal eting.



Husan ORIPOV tuzdi


8

16-iyun 2014

Qadrli bolajonlar! Barchamiz sevib iste'mol qiladigan gilos haqida ma'lumotga egamisiz?

BOG'IMIZDA GILOS PISHDI...

Gilos ra'noguldoshlar oilasiga mansub danakli, serhosil daraxt bo'lib, uning bo'yi 10-15, ba'zan 30 metrgacha boradi. Shoxlari qalin, yoyilib o'sadi. Mevasining shakli dumaloq, yuraksimon, eti shirali, sirti tekis. Uning tarkibida 7-15 foiz qand, 0,36 foiz kislotaga, 0,2 foiz vitaminlar mavjud. Danagidan olinadigan moy parfumeriya sanoatida ishlatiladi.



Gilos daraxti 300 kg.gacha hosil berishi mumkin. Jannatmakon yurtimizda uning Bahor, Revarshon, Sariq drogana, Chkalov turlari o'stiriladi.

Xalq tabobatida esa gilosdan kamqonlik kasalligida foydalaniladi.

Gilosdan tayyorlangan mazali sharbat hamda murabbo bolajonlarga juda yoqadi, deb o'ylaymiz.

Manzura UBAYDULLAYEVA

Aziz kichik bekalar! Bugun sizlarga tavsiya qilayotgan salatning mazasi og'zingizda qolishiga ishonamiz.

Marhamat, uni tayyorlab ko'ring va yaqinlaringizning olqishini oling.



KAMALAK SALATI

Kerakli masalliq: 250 gramm qaynatilgan go'sht, 200 gramm pishloq yoki brinza, 3 dona qattiq pomidor, 4 dona yangi uzilgan bodring, mayonez va ko'katlar, ta'bga qarab tuz.

Tayyorlanish usuli: qaynatilgan go'sht, pishloq, bodring va pomidor yirik somoncha shaklida to'g'raladi. Unga yirikroq to'g'ralgan ko'katlar qo'shib, tuzi rostanadi, so'ngra mayonez bilan aralashtiriladi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

TA'TILNI OSOYISHTA O'TKAZING!

Qadrli bolajonlar! Yong'in xavfsizligi qoidalari nimalardan iborat ekanligini yaxshi bilsangiz kerak-a? Bu borada sizga ota-onangiz va ustozlaringiz dastlabki tushunchalarni aytib berishgan. Ayni paytda oromgohlarda ham xavfsizlik burchagi tashkil etilgan. Shunday ekan, bu qoidalarga rioya qilishni va texnika vositalaridan to'g'ri foydalanishni unutmang. Masalan, televizor tomosha qilganingizdan so'ng, uni faqat pult yordamidagina o'chirmay, elektr tarmog'idan ham uzib qo'ying. Maishiy texnika vositalaridan esa ota-onangizning nazoratisiz foydalanmang! Bundan tashqari, gaz plitasidan foydalanayotganda ham ehtiyot bo'ling! Biroz o'yinqaroqlik qilib, xatolikka yo'l qo'ysangiz, o'sha zahotiyoyoq kattalarni ogohlantiring! Ba'zi tengdoshlaringiz kabi o'zboshimchalik qilib, vaziyatni o'zingiz to'g'rilashga harakat qilmang. Uyda kattalar bo'lmasa, «101» raqamiga qo'ng'iroq qilishni unutmang! Eng yaxshisi esa, baxtsiz hodisalarning oldini oling!



Jahongir HAYDAROV, Chilonzor tumani IIB YOHB inspektori

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Abdug'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSINOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURGUNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi
muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzilimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092-
Adadi — 51210
Buyurtma — S 166